

Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2026-yil 20-oktyabr, № 220 (9391) Seshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

SAMARQAND MULOQOTI MARKAZIY OSIYONING DUNYODAGI OVOZIGA AYLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 19-oktyabr kuni Samarqand shahrida “S5+1” formatidagi tashqi ishlar vazirlari uchrashuvida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi Raisi o‘rinbosari – tashqi ishlar vaziri Rashid Meredov, Qozog‘iston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Muxtar Tleuberdi, Qirg‘iz Respublikasi tashqi ishlar vaziri Jeenbek Kulubayev va Tojikiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Sirojiddin Muhriddinni qabul qildi.





Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi Raisi o‘rinbosari – tashqi ishlar vaziri Rashid Meredov suhbat avvalida davlatimiz rahbariga Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov va Turkman xalqining milliy yetakchisi, Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedovning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston – Turkmaniston do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Barcha darajalardagi aloqalar jadal tus olgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Yaqinda ikki mamlakat munosabatlari tarixida yangi mexanizm – Oliy darajadagi strategik sheriklik kengashi tuzildi. O‘zaro tovar ayirboshlash va yuk tashish hajmlari izchil oshib bormoqda. “Shovot – Toshovuz” chegaraoldi savdo zonasi muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

Qayd etilganidek, o‘n bir yil avval boshlangan muloqot bugun Markaziy Osiyoning dunyodagi ovoziga aylandi.

– Bugun “Markaziy Osiyo plyus” formatlari dunyo miqyosida naqadar katta g‘urur bilan yangramoqda. Biz birgalikda juda ko‘p ishlarni amalga oshiryapmiz, – dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston delegatsiyasi bilan uchrashuvda.

Davlatimiz rahbari O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi strategik sheriklik bo‘yicha oliy kengashni namuna sifatida ko‘rsatayotganini ta’kidladi.

Turkmaniston vaziri esa Samarqanddagi uchrashuvning tarixiy ramziga e’tibor qaratdi.

– Aynan shu shaharda 2015-yil noyabr oyida “C5+1” formatiga asos solingan. Oradan o‘n bir yil o‘tib, yana Samarqandda uchrashayotganimiz biz uchun alohida ahamiyatga ega, – dedi u.

(Davomi 2-betda).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.





O‘ZBEKISTON – AQSh STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARI YANADA RIVOJLANADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “S5+1” formatidagi vazirlar uchrashuvi hamda Amerika – O‘zbekiston ishbilarmonlik va investitsiya kengashining ikkinchi yig‘ilishida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan AQSh Davlat kotibi Marko Rubioni qabul qildi.

Uchrashuv avvalida Marko Rubio davlatimiz rahbariga AQSh Prezidenti Donald Trampning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Asosiy e’tibor O‘zbekiston – AQSh strategik sherikligini yanada mustahkamlash, oliy darajada erishilgan kelishuvlarni izchil amalga oshirish masalalariga qaratildi.

AQSh va Markaziy Osiyo mamlakatlari muloqotni mustahkamlash hamda ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirishdan o‘zaro manfaatdor ekanini tasdiqlagan “S5+1” formatidagi vazirlar uchrashuvining yakunlari yuqori baholandi.

Siyosat va xavfsizlik, savdo va investitsiyalar, innovatsiya va texnologiyalar, ta’lim va madaniyat kabi ustuvor yo‘nalishlarda ikki tomonlama hamkorlik faollashgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

(Davomi 2-betda).

AMERIKA BIZNESI O‘ZBEKISTON BOZORIGA KIRIB KELMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Samarqand shahrida “Franklin Templeton” kompaniyasi prezidenti va bosh ijrochi direktori Jenni Jonson, “Wabtec” kompaniyasi direktorlar kengashi raisi va bosh ijrochi direktori Rafael Santana va “Traxys” kompaniyasi bosh ijrochi direktori Mark Kristoffni qabul qildi.

“Franklin Templeton” kompaniyasi prezidenti va bosh ijrochi direktori Jenni Jonson bilan uchrashuvda yirik davlat korxonalarini transformatsiya qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning dastlabki natijalari ko‘rib chiqildi.

London va Toshkent birjalarida O‘zbekiston Milliy investitsiya jamg‘armasi aksiyalarining joylashtirilishi mamlakatimiz tarixidagi ilk xalqaro IPO bo‘lgani ta’kidlandi. Buning hisobiga qariyb 700 million dollar miqdorida mablag‘ jalb etildi, talab taklifga nisbatan to‘rt baravardan ziyod oshdi.

Keyingi bosqichda jamg‘arma portfelidagi kompaniyalarni transformatsiya qilish orqali aholi farovonligini oshirish, xizmatlar ishonchliligi va sifatini yaxshilash ko‘zda tutilgani qayd etildi. Keyingi aksiyalarni joylashtirish jarayonlarida fuqarolarning ishtirokini kengaytirish muhimligi ko‘rsatib o‘tildi.

(Davomi 2-betda).

“C5+1”: TARAQQIYOT YO‘LIDAGI MUSHTARAK MAQSADLAR

Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O‘zbekiston Amerika Qo‘shma Shtatlari bilan ko‘p qirrali, o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratmoqda. O‘z navbatida, rasmiy Vashington ham Markaziy Osiyo bilan hamkorlikni tashqi siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rmoqda.

Anjuman

Bu Samarqandda O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston tashqi ishlar vazirlari hamda Amerika Qo‘shma Shtatlari Davlat kotibi ishtirokida o‘tkazilgan “C5+1” formatidagi uchrashuvda ham yaqqol namoyon bo‘ldi.

Muloqotda Markaziy Osiyo davlatlari vazirlari va AQSh Davlat kotibi savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, uzoq muddatli investitsiyalarni jalb etish, transport, energetika va raqamli infratuzilmani rivojlantirish yuzasidan atroflicha fikr almashdi. Shuningdek, muhim minerallar sohasidagi sheriklikni kengaytirishga alohida e’tibor qaratildi. Bu mintaqamizda yangi sanoat quvvatlari, ish o‘rinlari va texnologik imkoniyatlarni yaratishga xizmat qiladi.

(Davomi 2-betda).

O‘ZBEKISTON – AQSh STRATEGIK ShERIKLIK MUNOSABATLARI YANADA RIVOJLANADI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Ikki mamlakat parlamentlari va idoralari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri va konstruktiv muloqot yo‘lga qo‘yilgan, ishbilarmon doiralar hamda akademik hamjamiyatning aloqalari kengaymoqda.

Xavfsizlik sohasidagi hamkorlik, avvalo, terrorizm, ekstremizm, narkotik moddalarning noqonuniy aylanmasi va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish kabi yo‘nalishlarda mustahkamlanmoqda.

O‘zbekiston va AQSh o‘rtasida Kengaytirilgan strategik sheriklik muloqoti yo‘lga qo‘yilgani ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishda muhim qadam bo‘ldi. Uning birinchi yig‘ilishi yakunlari bo‘yicha bir qator hujjatlar, jumladan, koinotni tinch maqsadlarda o‘zlashtirish sohasidagi “Artemida” bitimlari imzolandi.

Iqtisodiy hamkorlik strategik sheriklikning asosiy tayanch nuqtalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Yil boshidan buyon o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 35 foizga oshdi. Iqtisodiy hamkorlik dasturi doirasida fuqaro aviatsiyasi, avtomobilsozlik, konchilik, energetika, qishloq xo‘jaligi, raqamlashtirish va moliya sohalarida yirik loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikni rivojlantirishda Ishbilarmonlik va investitsiya kengashining o‘rni katta ekani ta’kidlandi. Kengashning bugungi yig‘ilishi doirasida 12 milliard dollarlik yangi kelishuvlarga erishildi.

Gumanitar sohadagi hamkorlik ham izchil kengayib bormoqda. Toshkentda Vebster universiteti, Amerika texnologiyalar universiteti va Kolorado konchilik maktabining kompetensiyalar markazi muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. O‘zbekistonga tashrif buyurayotgan amerikalik sayyohlar soni ham ortib bormoqda.

Tomonlar amaliy hamkorlikni rivojlantirishning yangi istiqbollarini ham belgilab oldilar. Strategik ahamiyatga ega muhim minerallar, energetika, transport, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar sohalarida hamkorlikni rivojlantirish uchun ulkan salohiyat mavjud.

Hududlararo aloqalarni rivojlantirish va ishbilarmon doiralar delegatsiyalarining o‘zaro tashriflarini yo‘lga qo‘yishga alohida e’tibor qaratildi.

Xalqaro siyosat va mintaqaviy xavfsizlikning dolzarb masalalari yuzasidan ham atroflicha fikr almashildi.

Ikki mamlakat yetakchilari ishtirokida bo‘lib o‘tadigan bo‘lajak tadbirlar rejasi va ularni mazmunan boyitish masalalari ko‘rib chiqildi.

So‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo‘shma Shtatlari Davlat kotibi Marko Rubio va AQSh Prezidentining Janubiy va Markaziy Osiyo bo‘yicha maxsus vakili Serjio Gorga davlat mukofotlarini topshirdi.

O‘zbekiston Prezidenti farmoniga ko‘ra, Marko Rubio “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi. Uning O‘zbekiston va AQSh o‘rtasidagi strategik sheriklikni rivojlantirish, siyosiy-diplomatik, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirish, Markaziy Osiyoda tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta’minlashga qaratilgan sa’y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlashga qo‘shgan ulkan shaxsiy hissasi e’tirof etildi. Shuningdek, Yangi O‘zbekistonning xalqaro tashabbuslarini ilgari surish, ikki mamlakat xalqlari o‘rtasidagi ishonch va do‘stlikni mustahkamlash yo‘lidagi xizmatlari alohida ta’kidlandi.

Serjio Gor esa O‘zbekiston va AQSh o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni mustahkamlash hamda strategik sheriklikni kengaytirishga qo‘shgan hissasi uchun “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlandi. Uning siyosiy muloqotni faollashtirish, ikki tomonlama kelishuvlarni amalga oshirish, amerikalik sarmoyadorlarni jalb etish va qo‘shma loyihalarni ilgari surish borasidagi sa’y-harakatlari, shuningdek, Amerika – O‘zbekiston ishbilarmonlik va investitsiya kengashi doirasidagi hamkorlikni rivojlantirishdagi xizmatlari e’tirof etildi.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika – O‘zbekiston ishbilarmonlik va investitsiya kengashining ikkinchi yig‘ilishi ochilishida ishtirok etdi.

Tadbirda Amerika Qo‘shma Shtatlari Davlat kotibi Marko Rubio, AQSh Prezidentining maxsus vakili Serjio Gor, Amerikaning yetakchi kompaniyalari va banklari vakillari ham qatnashdi.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida O‘zbekiston va AQSh o‘rtasidagi hamkorlikning yangi imkoniyatlari ko‘p asrlar davomida xalqlar, madaniyatlar va savdo yo‘llarini birlashtirib kelgan shahar – Samarqandda muhokama qilinayotgani ramziy ma’noga ega ekanini ta’kidladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston va Amerika o‘rtasidagi munosabatlar sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilgani, bu, eng avvalo, AQSh Prezidenti Donald Trampning shaxsiy e’tibori va qo‘llab-quvvatlovi tufayli ekani qayd etildi.

Mustahkam siyosiy sheriklik asosida iqtisodiy aloqalarni yanada kengaytirish zarurligi ta’kidlandi.

Bu borada qo‘shma loyihalar va tashabbuslarni ilgari surishga salmoqli hissa qo‘shayotgan Amerika – O‘zbekiston ishbilarmonlik va investitsiya kengashi alohida o‘rin tutadi.

Davlatimiz rahbari O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarga to‘xtalib o‘tdi. Iqtisodiyot o‘sib bormoqda, yangi korxonalar ishga tushirilmoqda, ish o‘rinlari yaratilmoqda, yoshlar uchun ta’lim olish imkoniyatlari kengaymoqda.

Shu bilan birga, sanoatni yanada rivojlantirish va zamonaviy infratuzilmani barpo etish uchun investitsiyalar jalb qilish jarayoni ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, bilim va tajriba almashish bilan birga olib borilishi zarurligi ta’kidlandi.

Bu borada AQSh biznesi bilan hamkorlik qilish bo‘yicha katta tajriba to‘plangani ta’kidlandi. Bugungi kunda O‘zbekistonda Amerika sarmoyasi ishtirokidagi yuzlab kompaniyalar faoliyat yuritmoqda. Ular bilan sanoat, energetika, transport, qishloq xo‘jaligi, ta’lim va yangi texnologiyalar sohalarida hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Ayni paytda O‘zbekiston kompaniyalari ham AQSh iqtisodiyotiga investitsiya kiritishni boshlamoqda.

Muhim minerallarni o‘zlashtirish va chuqur qayta ishlash orqali yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish, zamonaviy va barqaror energetika tizimini rivojlantirish, ma’lumotlarni qayta ishlash markazlarini tashkil etish, sanoat, qishloq xo‘jaligi, ta’lim va davlat boshqaruviga sun’iy intellekt hamda raqamli yechimlarni joriy qilish, ta’lim va kadrlar tayyorlash hamkorlikni yanada kengaytirish uchun istiqbolli yo‘nalishlar sifatida ko‘rsatib o‘tildi.

Ishbilarmonlik va investitsiya kengashining bugungi yig‘ilishiga katta tayyorgarlik ko‘rilgani qayd etildi. Natijada umumiy qiymati qariyb 12 milliard dollarlik 54 ta kelishuv va istiqbolli tashabbusdan iborat to‘plam shakllantirildi. Ularni amalga oshirish uchun kompleks harakatlar dasturi ishlab chiqiladi.

Kengash faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida kuch va imkoniyatlarni uchta ustuvor vazifani hal etishga safarbar etish muhimligi ta’kidlandi.

Avvalo, AQSh tadbirkorlari uchun tushunarli va oldindan taxmin qilish mumkin bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratish zarur. O‘zbekistonga kelgan sarmoyador ma’muriy tartib-taomillarga vaqt sarflamasdan, tezda o‘z biznesini boshlash imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim.

Bu borada investorlar bilan ishlashda “Plug and Play” tamoyiliga asoslangan yangi yondashuvga o‘tilayotgani ta’kidlandi. Ularga yer maydoni, infratuzilma, ruxsat olish va hujjatlar rasmiylashtirish masalalari hal etilgan tayyor loyihalar taklif etiladi.

Shu bilan birga, o‘zbekistonlik tadbirkorlar ham hamkor sifatida ishtirok etishi va investitsiyaviy xatarlarning bir qismini o‘z zimmasiga olishi mumkin. Yangi tashkil etilgan To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar jamg‘armasi ham bunday loyihalarda ishtirok etadi.


Keyingi ustuvor vazifa sifatida iqtisodiyotning yangi tarmoqlarini hamda sanoat va texnologiyalar jadal rivojlanishiga xizmat qiladigan yirik markazlarni birgalikda shakllantirish muhimligi qayd etildi.

Kengash ikki mamlakat o‘rtasidagi uzoq muddatli iqtisodiy sheriklikning strategik mexanizmiga aylanishi lozimligi ta’kidlandi. Shu munosabat bilan 2035-yilgacha bo‘lgan davrga mo‘ljallangan savdo-investitsiyaviy va texnologik hamkorlik dasturini ishlab chiqish taklif etildi.

Shu bilan birga, kengash yangi tashabbuslarni ishlab chiqish, tizimli to‘siqlarni bartaraf etish va yirik qo‘shma loyihalarni ilgari surishda muhim o‘rin tutadigan muloqot maydoniga aylanishi lozim.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
G‘olib HASANOV,
O‘zA maxsus muxbirlari.

Iqtibos





AQSh O‘zbekistondagi taraqqiyot darajasidan hamda hamkorlikni rivojlantirish istiqbollaridan hayratda

AQSh Davlat kotibi Marko Rubioning Markaziy Osiyoga birinchi tashrifiga qadimiy Samarqand mezbonlik qilmoqda. Ko‘hna shaharning mashhur me’moriy obidalari fonida yozib olingan va “X” ijtimoiy tarmog‘idagi sahifasida berilgan videomurojaatida u mintaqaning jahon savdo aloqalaridagi strategik ahamiyatini ta’kidlab, Vashingtonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdor ekanini bildirdi:

“Yer yuzida Samarqand singari jahon savdosi va tijoratida muhim rol o‘ynagan maskanlar ko‘p emas. Bugun biz bu yerga tarixni eslash uchungina emas, balki kelajakda oldimizda paydo bo‘ladigan imkoniyatlar haqida gaplashgani yig‘ildik.

Qo‘shma Shtatlar butun dunyo bo‘ylab sheriklik aloqalarini tobora kengaytirar ekan, bunda Markaziy Osiyo o‘zaro munosabatlarimizning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Biz savdo, tijorat, ilm-fan, texnologiyalar va boshqa ko‘plab sohalarda xalqlarimiz farovonligi yo‘lida birgalikda ishlash uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlarga egamiz. Biz mana shu hamkorlikni mustahkamlash uchun keldik.

Biz bilan birga bu yerga bitimlar tuzish va sheriklik munosabatlarini o‘rnatishdan manfaatdor bo‘lgan Amerikaning yuzlab kompaniyalari vakillari ham tashrif buyurdi. O‘ylaymanki, bu aloqalarimiz mamlakatlarimiz va butun mintaqa farovonligiga xizmat qiladi.

Tashrifning boshlanishi ajoyib bo‘ldi. Samarqand bizga asrlar davomida bu shahar orqali o‘tgan jahon savdo yo‘llarini eslatadi. Bizning davrimizga kelib savdo va amaliy aloqalar yana shu zaminga qaytmoqda va biz bu jarayonning faol ishtirokchisi bo‘lishni xohlaymiz.

Sheriklik munosabatlarimiz yanada rivojlanadi degan umiddamiz”.

Shuningdek, Samarqandda bo‘lib o‘tgan tadbirlar davomida Marko Rubio AQSh O‘zbekistondagi taraqqiyot darajasidan hamda ikki mamlakat o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish istiqbollaridan hayratda ekanligini ta’kidladi. Ko‘p jihatdan O‘zbekiston Prezidentining sa’y-harakatlari tufayli Markaziy Osiyoning dunyoga ochilishi ham diplomatik, ham iqtisodiy yo‘nalishda mislsiz imkoniyatlarni yaratdi. O‘zbekiston va Markaziy Osiyo savdo diplomatiyasida o‘yg‘onish davrini boshidan kechirmoqda, AQSh esa unga daxldor bo‘lish niyatida dedi Qo‘shma Shtatlar Davlat kotibi.

“Xalq so‘zi”.

SAMARQAND MULOQOTI MARKAZIY OSIYONING DUNYODAGI OVOZIGA AYLANDI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Oliy darajada erishilgan kelishuvlarni o‘z vaqtida amalga oshirish hamda uchinchi Hududlar forumi va Turkmaniston shaharlarida bo‘lib o‘tadigan O‘zbekiston madaniyati va kinosi kunlariga puxta tayyorgarlik ko‘rish muhimligi ta’kidlandi.

Mintaqaviy hamkorlik masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

Qozog‘iston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Muxtar Tleuberdi uchrashuv avvalida davlatimiz rahbariga Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston – Qozog‘iston do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Prezident Administratsiyalari, parlamentlar, hukumatlar, hududlar va ishbilarmon doiralar darajasidagi faol aloqalar yuksak baholandi.

Tovar ayirboshlash hajmi izchil ortib bormoqda, sanoat, transport, energetika, qishloq xo‘jaligi, qurilish va ekologiya sohalarida muhim kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Samarali madaniy-gumanitar almashinuvlar yo‘lga qo‘yilgan.

Ilgari bitta uchrashuvga bir oy davomida tayyorgarlik ko‘rilar edi. Bugun esa muloqotsiz o‘tayotgan haftaning o‘zi yo‘q!

Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog‘iston delegatsiyasi bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda ikki mamlakat munosabatlari qanchalik o‘zgarganini aynan shu misol bilan ifodaladi.

– Hurmatli Qosim-Jomart Kemelevich bilan munosabatlarimiz mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarildi. Hatto eng murakkab masalalarda ham birgalikda to‘g‘ri yechimlar topyapmiz, – dedi davlatimiz rahbari.

Uchrashuv davomida, shuningdek, Mayamida bo‘lib o‘tadigan “G20” sammiti haqida ham e’tiborga molik fikrlar bildirildi.

Oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish hamda kelgusi yilga mo‘ljallangan tadbirlar rejasini shakllantirish muhimligi ta’kidlandi.

Mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

Qirg‘iz Respublikasi tashqi ishlar vaziri Jeenbek Kulubayev mamlakatimiz yetakchisiga Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston – Qirg‘iziston do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Prezidentimizning joriy yil iyul oyida Qirg‘izistonga amalga oshirgan davlat tashrifi davomida erishilgan kelishuvlarni hayotga tatbiq etishga alohida e’tibor qaratildi.

Tovar ayirboshlash hajmining ijobiy o‘sish sur’ati, yetakchi korxonalar va hududlar o‘rtasidagi kooperatsiya aloqalari yo‘lga qo‘yilgani, energetika va transport sohalarida yirik mintaqaviy loyihalar amalga oshirilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ikki mamlakatning yaqinlashuvi, iqtisodiy hamkorlik hamda ittifoqchilik munosabatlari haqida to‘xtalib o‘tdi.

– Xalqlarimiz yildan-yilga bir-biriga tobora yaqinlashib borayotganimizni amalda his qilishi kerak. Bir milliard dollarlik tovar ayirboshlash hajmi – bu hali chegara emas. Agar tizimli sanoat kooperatsiyasini yo‘lga qo‘ysak, 5 milliard dollarlik marraga erishish ham mutlaqo realdir, – dedi davlatimiz rahbari.

Muloqot davomida Prezidentning “Bizga kuchli Qirg‘iziston kerak!” degan so‘zlari yana bir bor yangradi.

– Men o‘shanda buni baralla aytgan edim. O‘zbekiston Prezidenti sifatida shuni ta’kidlaymanki, bundan o‘zbek xalqi faqat xursand bo‘ladi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Qirg‘iziston tashqi ishlar vaziri esa Prezidentning Cho‘lponotaga davlat tashrifini tarixiy deb atab, aynan uning siyosiy irodasi tufayli ikki mamlakat munosabatlari ittifoqchilik darajasiga ko‘tarilganini ta’kidladi.

Kelgusi yilga mo‘ljallangan madaniy-gumanitar tadbirlar va hududlar darajasidagi almashinuvlar rejasini qabul qilish muhimligi ta’kidlandi.

Tomonlar Markaziy Osiyo mintaqasidagi hamkorlikning dolzarb masalalari yuzasidan ham fikr almashdilar.

Tojikiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Sirojiddin Muhriddin uchrashuv avvalida davlatimiz rahbariga Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmonning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida O‘zbekiston – Tojikiston do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirishning asosiy jihatlari ko‘rib chiqildi.

– Prezidentligimning ilk kunlaridanoq Tojikiston bilan munosabatlar men uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. O‘zingiz bilasiz, biz juda katta ishlarni amalga oshirdik. Ilgari chegaralar yopiq edi. Bugungidek savdo aylanmasi ham, bunday yaqin munosabatlar ham yo‘q edi.

O‘zbekiston va Tojikistonda bir-biri bilan qarindoshlik rishtalari orqali bog‘lanmagan oilaning o‘zi deyarli yo‘q.

ID-kartalar orqali chegaradan o‘tish tizimini joriy etishni ham tezlashtirishimiz kerak. Chunki yuk tashish hajmi ortib bormoqda va bu masalani hal qilishga real ehtiyoj mavjud, – dedi davlatimiz rahbari.

Shuningdek, hamkorlik barcha yo‘nalishlarda jadal rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘zaro savdo va yuk tashish hajmi ortib bormoqda. Energetika, sanoat, qishloq va suv xo‘jaligi sohalaridagi kooperatsiya loyihalari faol pallaga kirdi.

Madaniy-gumanitar, ta’lim va turizm sohalaridagi almashinuvni faollashtirish muhimligi ta’kidlandi.

Tomonlar mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalarni ham muhokama qildilar.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O‘zA muxbirlari.

AMERIKA BIZNESI O‘ZBEKISTON BOZORIGA KIRIB KELMOQDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Yirik kompaniyalarni IPOga tayyorlash, ularning boshqaruv kadrlarining malakasini oshirish hamda kompaniyaning Toshkent xalqaro moliya markazi faoliyatida ishtirok etishi bilan bog‘liq masalalar ko‘rib chiqildi.

“Wabtec” kompaniyasi direktorlar kengashi raisi va bosh ijrochi direktori Rafael Santana uchrashuvda mamlakatimizda temir yo‘l infratuzilmasi va tranzit salohiyati rivojlanayotganini hisobga olib, lokomotivlar parkini yangilash va kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

AQSh moliya institutlari ishtirokida lokomotivlarni ularning uzoq muddatli servisi bilan birga yetkazib berish masalalari muhokama qilindi. O‘zbekistonda texnik xizmat ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish, butlovchi qismlar ishlab chiqarish va mutaxassislar tayyorlash masalalari ham ko‘rib chiqildi.

Tog‘-kon korxonalarining karyer texnikasi uchun servis markazini tashkil etish hamda dizel-generator qurilmalari bo‘yicha hamkorlik qilish masalalariga ham to‘xtalib o‘tildi.

“Wabtec” kompaniyasi – lokomotivlar, temir yo‘l texnikasi, raqamli va servis yechimlarini ishlab chiqarish bo‘yicha jahonning yetakchi kompaniyalaridan biri. Kompaniya Markaziy Osiyo mamlakatlarida ham loyihalarni amalga oshirmoqda.

“Traxys” kompaniyasi bosh ijrochi direktori Mark Kristoff bilan suhbat davomida o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

O‘tgan bir yil davomida “Traxys” kompaniyasi bilan hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarilgani, jumladan, bitimlar imzolanib, Toshkent shahrida kompaniyaning Markaziy Osiyodagi ilk mintaqaviy ofisi ochilgani ta’kidlandi.

Amerika texnologiyalari asosida muhim minerallar, xomashyoni chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratildi.

“Traxys” kompaniyasi muhim xomashyo va minerallarni yetkazib berish bo‘yicha jahonning yetakchi kompaniyalaridan biri hisoblanadi. Kompaniya dunyoning 20 dan ortiq mamlakatlarida faoliyat yuritib, metallar va minerallarni xarid qilish, logistikasini tashkil etish, moliyalashtirish hamda sotish bilan shug‘ullanadi.

O‘zA.

«C5+1»: TARAQQIYOT YO‘LIDAGI MUSHTARAK MAQSADLAR

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Uchrashuvda qayd etilganidek, bundan o‘n bir yil avval Samarqandda yo‘lga qo‘yilgan mazkur format o‘tgan davr mobaynida yanada takomillashdi. 2020-yilda AQShning Markaziy Osiyo bo‘yicha strategiyasida “C5+1” asosiy hamkorlik mexanizmlaridan biri sifatida belgilandi. Shu asosida 2023-yil Nyu-Yorkda va 2025-yil noyabrda Vashingtonda bo‘lib o‘tgan sammitlar davlat rahbarlari darajasiga chiqdi.

Eng muhimi, keyingi o‘n yillikda O‘zbekiston yetakchisining faol va pragmatik tashqi siyosati natijasida Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi aloqalar mustahkamlanib, yaqin qo‘shnichilik, birodarlik munosabatlari izchil rivojlanib bormoqda. Ayni paytda mintaqa davlatlari o‘rtasida uzoq vaqt yechim topilmagan chegara bilan bog‘liq masalalar hal qilingan. O‘zaro savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlik ikki va ko‘p tomonlama munosabatlarda davom etmoqda.

AQSh Davlat kotibi O‘zbekiston bilan munosabatlarni strategik ahamiyatga ega deb aytdi. Shuningdek, O‘zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari bilan aloqalarni mustahkamlash AQSh tashqi siyosatining muhim yo‘nalishi ekanini qayd etdi.

Tadbir yakunlari bo‘yicha qo‘shma bayonot imzolandi. Unda Markaziy Osiyo mamlakatlari va AQSh o‘rtasidagi hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari belgilangan. Jumladan, bayonotda bugungi imkoniyatlardan foydalangan holda har bir mamlakat fuqarolari uchun yanada tinch va farovon kelajakni barpo qilishga intilish, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish tamoyillarini rivojlantirish, mamlakatlar o‘rtasidagi muloqot va hamkorlikni izchil mustahkamlash ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, Markaziy Osiyoning global iqtisodiyot markazidagi o‘rnini qayta tiklash, Transkaspiy savdo yo‘lagini yanada rivojlantirishga qaratilgan birgalikdagi sa’y-harakatlar Markaziy Osiyo va AQSh o‘rtasida ikki tomonlama savdo va investitsiyalarni misli ko‘rilmagan darajada kengaytirishga, shuningdek, jadal o‘sayotgan bozorlardagi imkoniyatlarni ishga solishga xizmat qilishi ta’kidlangan.

Rivojlanib borayotgan “C5+1” platformasi Markaziy Osiyoda faoliyat yuritayotgan Amerika kompaniyalari uchun o‘zaro manfaatli yangi tijorat imkoniyatlarini yaratishda davom etishi, shu bilan birga, hukumatlar Markaziy Osiyo korxonalarining AQSh bozoriga sarmoya kiritishi va ushbu bozorda faoliyat yuritishi uchun kengaytirilgan sharoitlarni nazarda tutayotgani alohida urg‘ulangan.

Bayonotda xavfsiz va ishonchli texnologiyalar, Amerikaning texnologik salohiyati hamda Markaziy Osiyoda jadal rivojlanayotgan texnologiya tarmoqlaridan foydalanish orqali elektron tijorat ravnaq topadigan, innovatsion yechimlar keng qo‘llaniladigan va iqtidorli tadbirkorlar muvaffaqiyatga erishadigan mintaqani shakllantirish maqsadi ilgari surilgan.

Muloqot ishtirokchilari AQSh va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi energetika sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash barqaror iqtisodiy o‘sish va energetik barqarorlikni ta’minlashini, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega integratsiyalashgan ta’minot zanjirlarini rivojlantirish borasidagi sa’y-harakatlarga kuchli turtki berishini e’tirof etdi. Shu bilan birga, mintaqada energetika sohasini rivojlantirishning umumiy va qudratli harakatlantiruvchi kuchiga aylanish uchun salohiyatlar birlashtirilishi aytildi. Bu borada geologik ma’lumotlarni boshqarish bo‘yicha tajriba va ilg‘or amaliyotlarni almashish maqsad qilingan.

Bundan tashqari, bayonotda “C5+1” doirasidagi xavfsizlik bo‘yicha hamkorlik, bojxona tartib-taomillarini takomillashtirish va savdoni yengillashtirish, madaniy meros yo‘nalishidagi aloqalarni rivojlantirish, turizm va kreativ iqtisodiyot kabi madaniy sohalarda biznes sheriklikni kengaytirish masalalari bo‘yicha ham umumiy qarashlar bildirilib, birgalikda yanada farovon kelajakni barpo etish maqsadi ilgari surildi.

Uchrashuvda, shuningdek, biznes vakillariga ustuvor loyihalarni belgilash va ularni amalga oshirishda “C5+1” va “B5+1” formatlari asosida hamkorlikni muntazam yo‘lga qo‘yish taklif etildi.

Abdulaziz YO‘LDOSHEV
(“Xalq so‘zi”).

Prezidentimiz qaroriga ko‘ra yangi tashkil etiladigan – Toshkent xalqaro moda akademiyasi davlat oliy ta’lim tashkiloti hisoblanadi va Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi tizimida faoliyat yuritadi.

Uchrashuv

HAR BIR BOLA MUNOSIB SHAROITGA HAQLI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Samarqand shahrida bo‘lib o‘tadigan “Bolalar farovonligiga investitsiya: kelajak avlodlar uchun barqaror va adolatli taraqqiyot sari yo‘l” mavzuidagi butunjahon sammitida ishtirok etish uchun mamlakatimizga tashrif buyurgan BMT Bolalar jamg‘armasi (YUNISEF)ning mintaqaviy direktori Eduard Beygbeder bilan uchrashdi.

Unda O‘zbekiston va YUNISEF o‘rtasida bolalar huquqlarini himoya qilish, ularning farovonligini ta’minlash hamda har bir bola uchun munosib sharoitlar yaratish borasidagi hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari muhokama qilindi.

Ta’kidlanganidek, Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida bolalar huquqlarining konstitutsiyaviy kafolatlarini mustahkamlash, ularni ijtimoiy himoya qilishning samarali tizimini shakllantirish va bolalar manfaatlarini ta’minlash borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonlarda esa YUNISEF bilan yo‘lga qo‘yilgan samarali hamkorlik muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Muloqot chog‘ida bolalar manfaatlariga oid qonunchilik hujjatlari, jumladan, “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun ijrosini ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Qonunchilik me’yorlarining hududlarda amalga oshirilishini YUNISEF ekspertlari bilan hamkorlikda o‘rganish, bolalarga ko‘rsatilayotgan yordam samaradorligini baholash va natijalar asosida amaliy chora-tadbirlarni belgilash yuzasidan fikr almashildi.

Shuningdek, bolalarning qobiliyat va iqtidorini ro‘yobga chiqarish, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, bu borada mutaxassislar hamda ota-onalarga amaliy ko‘mak ko‘rsatish masalalari muhokama qilindi.

Uchrashuvda ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni oila muhitida tarbiyalash imkoniyatlarini kengaytirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ham gap bordi. O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishlarda olib borilgan ishlarda ijobiy o‘zgarishlarga erishilgani YUNISEF tomonidan e’tirof etilgani ta’kidlandi.

Oilaviy bolalar uylarida tarbiyalanayotgan bolalarni qo‘llab-quvvatlash, og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan oilalarga ko‘mak ko‘rsatish, nogironligi bo‘lgan bolalar uchun xizmatlar qamrovi va sifatini yaxshilash, shuningdek, ijtimoiy dasturlarni samarali amalga oshirish masalalari yuzasidan atroflicha fikr almashildi. Mazkur yo‘nalishlardagi hamkorlikni YUNISEFning 2026 – 2030-yillarga mo‘ljallangan mamlakat dasturi doirasida uyg‘unlashtirish, belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash va amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlash muhimligi qayd etildi.

“Xalq so‘zi”.

O‘rganish

KUN TARTIBIDA – MUROJAATLARDA KO‘TARILGAN MASALALAR

Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya qo‘mitasi ishchi guruhi Qashqadaryo viloyatida qishloq va suv xo‘jaligi, atrof-muhitni muhofaza qilish yo‘nalishlaridagi mavjud muammolar hamda ularni hal etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi.

O‘rganishlar doirasida viloyatdagi shu yo‘nalishlarga mas’ul tashkilotlar faoliyati tahlilga tortildi. Sohalardagi dolzarb masalalar, fuqarolar va tadbirkorlar tomonidan bildirilgan taklif hamda e’tirozlarni o‘rganish holatiga e’tibor qaratildi.

Xususan, suv xo‘jaligi bo‘yicha sug‘orish tarmoqlarining texnik holati, qishloq xo‘jaligi yerlarini suv bilan o‘z vaqtida ta’minlash va suv resurslaridan oqilona foydalanish masalalari ko‘rib chiqildi. Bunda isrofgarchilikning oldini olish, suv ta’minotidagi muammolarni bartaraf etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar ham tahlil qilindi.

Qishloq xo‘jaligi yo‘nalishida yer maydonlaridan maqsadli foydalanish, tuproq unumdorligini saqlash, tomorqachilikni rivojlantirish va fermer hamda dehqon xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash masalalari o‘rganildi. Shu bilan birga, soha vakillari duch kelayotgan muammolarni o‘z vaqtida hal etish choralari ko‘rib chiqildi.

Ekologiya yo‘nalishida esa chiqindilarni o‘z vaqtida olib chiqish, ekologik muammolarning oldini olish, yashil hududlarni asrash va ko‘kalamzorlashtirish ishlari samaradorligini oshirishga alohida e’tibor berildi.

Ishchi guruh tomonidan Yakkabog‘, Qarshi, Dehqonobod va Koson tumanlari hamda Qarshi shahrida fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari ko‘targan masalalar ham o‘rganildi. Murojaatlarni ko‘rib chiqish sifati, mas’ul tashkilotlarning munosabati, belgilangan vazifalar ijrosi va ko‘rilgan choralarning amaliy natijalari tahlil qilindi.

O‘rganishlar yakunida mas’ul tashkilotlarga aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, muammolarning kelib chiqish sabablarini aniqlash va ularning yechimi bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilash yuzasidan tavsiyalar berildi. Ayni chog‘da, murojaatlar ijrosini nazoratga olish va fuqarolarning qonuniy manfaatlarini ta’minlash zarurligi ta’kidlandi.

“Xalq so‘zi”.

Senat qo‘mitasida

AMALIY NATIJALAR – KELISHUVLAR IJROSI MEZONI

Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi majlisida O‘zbekiston Respublikasi va Pokiston Islom Respublikasi o‘rtasida oliy darajada erishilgan kelishuvlarning ijrosi parlament nazorati tartibida muhokama qilindi.



Investitsiyalar, sanoat va savdo, qishloq xo‘jaligi, tog‘-kon sanoati va geologiya, raqamli texnologiyalar, qurilish hamda uy-joy kommunal xo‘jaligi sohalari, yengil sanoat, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi, temir yo‘l transporti, farmatsevtika, ilm-fan va boshqa yo‘nalishlarga mas’ul vazirlik hamda idoralar vakillarining axborotlari eshitildi.

Shuningdek, O‘zbekistonning Pokistondagi elchixonasi vakili ham hamkorlikning amaliy jihatlari yuzasidan axborot berdi.

O‘zbekiston va Pokiston o‘rtasidagi munosabatlar so‘nggi yillarda yangi bosqichga ko‘tarilib, siyosiy muloqot, savdo-iqtisodiy hamkorlik, investitsiyalar, transport-logistika, sanoat kooperatsiyasi, qishloq xo‘jaligi, ta’lim, fan va madaniy-gumanitar sohalardagi aloqalar izchil rivojlanmoqda.

Xususan, Prezidentimizning shu yil 5-6-fevral kunlari Pokistonga davlat tashrifi yakunlari bo‘yicha erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 16-apreldagi tegishli qarori bilan “yo‘l xaritalari” tasdiqlangan. Unda belgilangan vazifalarning bajarilishi, amalga oshirilgan ishlar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish choralari ko‘rib chiqildi.

Muhokama davomida oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish bo‘yicha muayyan ishlar olib borilayotgani qayd etildi. Shu bilan birga, ayrim vazifalarni bajarishda kechikishlar, mas’ul ijrochilar o‘rtasidagi muvofiqlashtirishni kuchaytirish zarurati hamda belgilangan topshiriqlarning o‘z vaqtida va to‘liq bajarilishini ta’minlash bilan bog‘liq masalalarga e’tibor qaratildi.

So‘zga chiqqanlar kelishuvlar ijrosini faqat bajarilgan ishlar to‘g‘risidagi hisobotlar bilan emas, balki aniq amaliy natijalar bilan baholash muhimligini ta’kidladi. Shuningdek, ayrim kelishuvlarni amalga oshirishda Pokiston tomoni bilan hamkorlikda hal etilishi lozim bo‘lgan masalalarni shakllantirish va parlamentlararo muloqot doirasida ko‘rib chiqish zarurligi qayd etildi.

Muhokama yakunida tegishli qaror qabul qilindi.

Konferensiya

OLIM ILMIY MEROSINING E‘TIROFI

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida atoqli olim, akademik Po‘lat Habibullayev tavalludining 90 yilligi munosabati bilan “Fizikada fundamental va amaliy tadqiqotlar” mavzuida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo‘lib o‘tdi.

Unda Oliy Majlis Senatining Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi raisi Odiljon Mamatkarimov ishtirok etdi. U o‘z so‘zida akademik Po‘lat Habibullayevning mamlakatimiz ilm-fani rivojiga qo‘shgan hissasi, fizika yo‘nalishidagi fundamental va amaliy tadqiqotlari, ilmiy maktablar shakllantirish hamda yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlash borasidagi faoliyatini alohida qayd etdi.

Yig‘ilish ishtirokchilari olimning serqirra ilmiy faoliyati, boy ilmiy merosi va u bilan bog‘liq xotiralar bilan o‘rtoqlashdi. Olimning 500 dan oshiq ilmiy ishlar va 15 ta monografiya muallifi ekani, 200 dan ortiq fan nomzodlari, 40 nafar fan doktorini tayyorlash ishlariga munosib hissa qo‘shganligi e’tirof etildi.

Konferensiyada mamlakatimiz va xorijiy davlatlar olimlari, mutaxassis hamda ekspertlar zamonaviy fizikaning dolzarb masalalari, fundamental tadqiqotlarning amaliy ahamiyati va ilm-fan taraqqiyotining istiqbollariga alohida e’tibor qaratishdi.

“Xalq so‘zi”.

Fraksiyalar hayoti

AHOLI HUQUQ VA MANFAATLARI MUHOFAZASIGA QARATILGAN SA’Y-HARAKATLAR

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig‘ilishlari bo‘lib o‘tdi. Ularda quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari atroflicha ko‘rib chiqildi.

Tadbirkorlar uchun yangi yengilliklar

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida moliyaviy jarimalarni qo‘llash tartibini yengillashtirish, ular ustidan shikoyat qilish hamda noqonuniy undirilgan mablag‘larni qaytarishga qaratilgan qonun loyihasi ko‘rib chiqildi.

Ushbu hujjat moliyaviy jarimalarni qo‘llashning yagona, aniq va shaffof tartibini belgilash, moliyaviy sanksiyalarni ixtiyoriy va yengillashtirilgan tartibda ijro etish mexanizmlarini joriy qilishga qaratilgan.

Qonun loyihasida moliyaviy jarima qo‘llash to‘g‘risidagi qarorlar bekor qilingan yoki haqiqiy emas deb topilganda, qonunga xilof ravishda undirilgan mablag‘larni o‘z vaqtida va to‘liq qaytarish orqali tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli muhofaza etish nazarda tutilmoqda. Shuningdek, moliyaviy javobgarlikni qo‘llash tartibini yanada yengillashtirish belgilanmoqda. Bu esa tadbirkorlarni asossiz yoki ortiqcha moliyaviy jazolardan himoya qilishga imkon beradi.

Munozaralarda fraksiya a’zosi Baxtiyor Artiqov qonun loyihasini ikkinchi o‘qishga tayyorlash davomida amalga oshirilgan ishlarni alohida e’tirof etib, ushbu tartiblar tadbirkorlarga yengillik yaratish, ularni asossiz jarimalardan asrashga xizmat qilishini ta’kidladi.

Yig‘ilishda “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 111-moddasiga tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritish haqida”gi



qonun loyihasi ham atroflicha muhokama qilindi.

Mazkur hujjat bilan javobgarlikni yengillashtiruvchi, hech bo‘lmaganda, bitta holat mavjud bo‘lganda, jarimani sud tomonidan 50 foizga kamaytirish nazarda tutilmoqda. Bu esa jazo tayinlashda adolatni ta’minlash, huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning holatini inobatga olish va unga nisbatan yengilroq jazo qo‘llash imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi.

Qonun loyihasiga mas’ul deputat Ulug‘bek Qobulov hujjatning ahamiyati haqida alohida to‘xtalar ekan, uni birinchi o‘qishdagi muhokamasi chog‘ida uning ayrim normalarini takomillashtirishga qaratilgan qator takliflar ilgari surilganini va ular asosida loyiha matni takomillashtirilib, maromiga yetkazilganini qayd etdi.

Yig‘ilishda kun tartibidagi masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

Parlament so‘roviga yuborilgan javob ko‘rib chiqildi

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasining 2026-yilga mo‘ljallangan ayrim maqsadli ko‘rsatkichlariga erishish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida”gi parlament so‘roviga raqamli texnologiyalar vazirining javobi ko‘rib chiqildi.

Ushbu masalada so‘zga chiqqan deputat Baxtiyor Maniyazov “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida joriy yil uchun belgilangan vazifalar ijrosi haqida to‘xtalib, aholi va ijtimoiy soha obyektlarini yuqori tezlikdagi internet bilan ta’minlash borasida samarali ishlar olib borilganini ta’kidladi. Jumladan, 10 657 ta maktab, 6 988 ta bog‘cha, 5 786 ta sog‘liqni saqlash obyekti, 8 935 ta mahalla fuqarolar yig‘ini internet bilan to‘liq qamrab olingan. Shu bilan birga, aholi punktlarini zamonaviy mobil aloqa va internet bilan qamrab olish qamrovi 99,5 foizga yetkazilgan.

2026-yil boshidan buyon 11 mingdan ortiq mobil aloqa tayanch stansiyalari o‘rnatilib, ularning umumiy soni 110,5 mingtaga yetkazilgan. Natijada xalqaro ahamiyatga ega avtomagistral yo‘llarning 95,5 foizi mobil internet bilan qamrab olingan. Yil yakuniga qadar mazkur ko‘rsatkichni 96 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Optik tolali aloqa infratuzilmasini rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. 2020-yilda bunday aloqa liniyalarining umumiy uzunligi 119,5 ming kilometrni tashkil etgan bo‘lsa, hozirda 397 ming kilometrga yetkazilgan. Natijada aholi maskanlarining 98,1 foizi optik tolali aloqa liniyalari bilan qamrab olingan.

Amalga oshirilayotgan infratuzilmaviy loyihalar internet xizmatlarining nafaqat qamrovini, balki tezligi va sifatini ham sezilarli darajada yaxshilash imkonini bermoqda.

Yig‘ilishda o‘tgan davrda mamlakatimizning xalqaro reytingdagi o‘rni yaxshilanib, mobil internet tezligi bo‘yicha 133-o‘rindan 72-o‘ringa, simli internetda esa 112-o‘rindan 73-o‘ringa ko‘tarilgan va bu borada Markaziy Osiyoda birinchi o‘rinni egallagani qayd etildi.

Deputatlar “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilgan ma’lumotlar bilan ham tanishib, parlament so‘rovida qo‘yilgan barcha savollarga to‘liq va batafsil javob berilganini urg‘ulashdi.


Moliyaviy sanksiyalarni qo‘llashning aniq tartibi belgilanmoqda

“Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida moliyaviy jarimalarni qo‘llash tartibini takomillashtirish va tadbirkorlik subyektlari huquqlari himoyasiga qaratilgan qonun loyihasi muhokama etildi.

Unda moliyaviy sanksiyalarni qo‘llashning yagona, aniq va shaffof tartibini belgilash, davlat organlari qarorlari ustidan shikoyat qilish imkoniyatlarini kengaytirish hamda qonunga xilof ravishda undirilgan mablag‘larni qaytarish mexanizmlarini takomillashtirish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, jarimani ixtiyoriy ravishda to‘lashda yengilliklar berish, uni olti oy davomida bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini yaratish, jarima to‘g‘risidagi qaror bekor qilingan yoki haqiqiy emas deb topilgan hollarda esa undirilgan mablag‘larni qaytarish tartibini belgilash ko‘zda tutilgan.

Fraksiya a’zosi Dilmurod Ismoilovning aytishicha, qonun ustuvorligini ta’minlashda nafaqat huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralarini belgilash, balki tadbirkorlik subyektlari va yuridik shaxslarning huquqlarini ishonchli himoyalash ham muhim. Moliyaviy sanksiyalarni qo‘llashning aniq va shaffof tartibi belgilanishi, qarorlar ustidan shikoyat qilish imkoniyati kafolatlanishi huquqiy adolatni ta’minlashga yo‘l ochadi.



Muhokamada fraksiya a’zolari moliyaviy sanksiyalarni qo‘llashda qonuniylik, xolislik va mutanosiblik tamoyillariga rioya etish muhimligini ta’kidlashdi. Aytilganidek, qonun loyihasi bilan taklif qilinayotgan o‘zgartirishlar partiya saylovoldi dasturida ko‘rsatilganidek tadbirkorlarga qo‘llaniladigan moliyaviy sanksiyalar miqdorini qat’iy belgilash va huquqiy kafolatlarni kuchaytirish bilan bog‘liq g‘oyalarga hamohangdir. Mazkur normalar moliyaviy jarimalarni qo‘llashda qonuniylik va adolat tamoyillarini ta’minlash, tadbirkorlarni asossiz moliyaviy jazolardan himoyalashga xizmat qilishi qayd etildi.

Fraksiya a’zolari qonun loyihasini qo‘llab-quvvatlab, uni takomillashtirishga qaratilgan taklif va mulohazalarini bildirdi.

Munozaralarda ko‘tarilgan dolzarb masalalar

O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida dastlab moliyaviy sanksiyalarni qo‘llashning aniq va yagona huquqiy mexanizmlarini belgilash, yuridik shaxslarning huquqlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirishga qaratilgan qonun loyihasi ko‘rib chiqildi.

Muhokama chog‘ida fraksiya a’zosi Ulug‘bek Shermatov moliyaviy sanksiyalar qo‘llanilishi yoki sud qarori qabul qilingani haqida tadbirkorlarni o‘z vaqtida xabardor etish mexanizmlari bilan qiziqdi. Mas’ullar tomonidan ushbu tartiblar yuzasidan tushuntirish berilgach, qonun loyihasi qo‘llab-quvvatlandi.

Yig‘ilishda chiqindilar bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qonun loyihasi yuzasidan ham atroflicha fikr almashildi.

Ta’kidlanganidek, sohadagi munosabatlar 24 yil avval qabul qilingan “Chiqindilar to‘g‘risida”gi Qonun asosida tartibga solib kelinmoqda. Bugungi kunda hududlarning sanitariya va ekologik holatini yaxshilash, chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish, bu boradagi huquqiy mexanizmlarni zamon talablariga moslashtirish zarurati mavjud.

Muhokamada deputat Imomnazar Tursunov utilizatsiya yig‘imlari va maishiy chiqindilar uchun tariflarning asossiz oshishiga yo‘l qo‘ymaslik masalasini ko‘tardi. Bunda aholining to‘lov qobiliyatini hisobga olish, yig‘ilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishini ta’minlash, chiqindi poligonlarining holatini yaxshilash, chiqindilarni yoqish va ko‘mish jarayonlarida ekologik xavfsizlik talablariga rioya etish muhimligini ta’kidladi.

Fraksiya a’zosi Anvarxon Temirov qonun loyihasida aholi zimmasiga yuklatilayotgan majburiyatlar bilan bir qatorda chiqindilarni yig‘ish va olib chiqib ketish uchun mas’ul tashkilotlarning vazifalari hamda javobgarligini aniq belgilash zarurligini qayd etdi. Uning fikricha, chiqindi hosil qiluvchilarning mas’uliyati belgilanayotgan bir sharoitda xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar zimmasidagi majburiyatlar va ularni bajarmaganlik uchun javobgarlik ham huquqiy jihatdan mustahkamlanishi lozim.

Muhokamada bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, deputatlar qonun loyihasini konseptual jihatdan qo‘llab-quvvatladi. Shu bilan birga, uni ikkinchi o‘qishga tayyorlash jarayonida fraksiya a’zolarining taklif va mulohazalarini inobatga olish zarurligi ta’kidlandi.

Chiqindilarni boshqarishning huquqiy asosi takomillashtirilmoqda

O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida “Chiqindilar to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ko‘rib chiqildi.

Ta’kidlanganidek, mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilishni ta’minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, hududlarning sanitariya va ekologik holatini yaxshilash bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Qonun loyihasida chiqindini boshqarish yo‘nalishida fuqarolar sog‘lig‘i, mol-mulki va atrof-muhit xavfsizligi, chiqindilar hosil bo‘lishining oldini olish va minimallashtirish, chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirishda jamoatchilik ishtiroki ustuvor tamoyillar sifatida belgilanmoqda. Shuningdek, vakolatli davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati idoralari va boshqa ishtirokchilarning vakolatlari aniq ko‘rsatilmoqda.

Loyihada chiqindilarga nisbatan mulkiy munosabatlar, chiqindilarni tasniflash tizimini joriy etish, sohani iqtisodiy rag‘batlantirish, sanoat obyektlarida xavfli chiqindilarni, tibbiyot va biologik chiqindilarni yig‘ish, zararsizlantirish, utilizatsiya qilish tizimini tashkil etish nazarda tutilmoqda. Shu bilan birga, qurilish chiqindilarini boshqarish, ularni belgilanmagan joylarga tashlash va ekologik talablarga zid ravishda yoqishning oldini olish, sanitar tozalash korxonalari faoliyatini qonun darajasida tartibga solish belgilanmoqda.

Muhokama davomida qonun loyihasining chiqindilarni boshqarish bo‘yicha huquqiy asoslarni takomillashtirish, resurslardan samarali foydalanish, sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish hamda aholi uchun ekologik xavfsiz atrof-muhitni ta’minlashdagi ahamiyatiga e’tibor qaratildi.

– Qonun loyihasining qabul qilinishi chiqindilar bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish, sohada davlat boshqaruvi va nazorat samaradorligini oshirish, chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiyasini rivojlantirish uchun mustahkam huquqiy asos yaratishga xizmat qiladi, – dedi fraksiya a’zosi Mohira Xo‘jayeva.

Muhokama yakunida bildirilgan fikr va takliflar asosida qonun loyihasi qo‘llab-quvvatlandi.

“Xalq so‘zi”.

O‘zbekiston delegatsiyasi 17-18 oktyabr kunlari Bag‘dod shahrida bo‘lib o‘tgan Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashining 52-sessiyasida ishtirok etdi.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2026-yil 20-oktyabr

AZALIY DO‘STLIKNING UZILMAS RISHTASI



Ko‘z o‘ngimizdagi o‘zgarishlar

O‘zbek va qirg‘iz xalqlarining madaniyati, urf-odatlari hamda qadriyatlari shu qadar bir-biri bilan chirmashib ketganki, ularni ayri holda o‘rganishning imkoni yo‘q. Ikki elning to‘ylari baxshilarning termalari, o‘lan va laparlar bilan o‘tadi. Mehmondorchilik odobi, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko‘rsatish odatlari bir xil mezonlarga tayanadi. “Manas” eposidagi bag‘rikenglik va mardlik g‘oyalari o‘zbekning “Alpomish” dostonidagi or-nomus va vatanparvarlik tamoyillari bilan hamnafasdir. Tilshunos olimlarning ta’kidlashicha, o‘zbek va qirg‘iz tillari turkiy tillar oilasining chig‘atoy hamda qipchoq guruhlariga mansub bo‘lsa-da, ularning lug‘at boyligi va grammatik qurilishi 70 – 80 foiz o‘xshashlikka ega. Ular o‘z ona tilida gaplashganda ham hech qanday tarjimonsiz muloqot qila olishining o‘ziyoq ma’naviy yaqinlikning yorqin isbotidir.

Bugungi kunda ushbu azaliy do‘stlik va tarixiy rishtalar yangicha mazmun hamda yuksak sur’at bilan boyib bormoqda. Zamonlar va tuzumlar almashsa-da, asrlar sinovidan o‘tgan qardoshlik rishtalari hech qachon uzilmaydi. Ikki xalqning bir-biriga mehr-oqibati va ishonchi esa umumiy kelajagimiz hamda barqarorligimizning mustahkam kafolati bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mehr va qardoshlik darvozasi

Shunday murakkab davrlar ham bo‘ldiki, ikki xalq o‘rtasidagi bordi-keldilarga to‘siqlar qo‘yildi. Ikki davlat orasini simto‘rlar to‘sdi, chegaralar yopildi. Lekin hech qanday chegara yoki temir to‘siq inson qalbidagi sog‘inch tuyg‘usini, mehr-oqibatni to‘sa olmasligini aynan shu sinovli yillar yana bir bor isbotladi.

Azal-azaldan quda-anda, qondosh va jondosh bo‘lib ketgan bu ikki xalq o‘rtasidagi vaqtinchalik uzilish ko‘pchilikning yuragida chuqur chandiq qoldirdi. O‘zbekning qizi Qirg‘izistonga kelin bo‘lgan, qirg‘izning qizi esa O‘zbekistonga turmushga chiqqan. Bir-birining yaxshi-yomon kunida doim yelkadosh bo‘lgan qarindoshlar to‘satdan tortilgan simto‘rlar sabab ayriliqqa duchor bo‘ldi.

Qo‘rg‘ontepalik mehnat faxriysi Qosim Nishonovning hikoyasi o‘sha davrdagi minglab insonlarning qalbidagi og‘riqni o‘zida mujassam etadi:

– Singlim Qirg‘iz Respublikasining Aravon tumanida yashaydi. Mustaqilligimizning dastlabki yillarida xavfsizlik nuqtayi nazaridan chegaralar yopilib qoldi. Shunda singlim bilan diydorlashuv chinakam muammoga aylandi. Hech yodimdan chiqmaydi, otam vafot etganida singlimga xabar berdik. Tabiiyki, janozasiga yetib kelolmadi, biroq ma’rakasiga qandaydir yo‘l topib yetib keldi: rang-ro‘yi bir ahvolda. Bilsak, chegaradan qonuniy tarzda o‘tishning imkoni bo‘lmagani uchun aylanma yo‘llar orqali ming bir mashaqqat bilan o‘tibdi. Askarlardan qochaman, deb balchiqqa botib qolibdi. Ma’raka o‘tib, hamma uy-uyiga tarqalayotgan bir paytda singlim ko‘zida yosh bilan xayrlashdi: “endi meni kutmanglar”. U shu qadar azob chekkan ediki, endi osonlikcha kelolmasligiga ishongandi. Shukrki, bugun vaziyat tubdan o‘zgardi. O‘shanda singlim yuzlab kilometrni piyoda, qo‘rquv va mashaqqat bilan bosib kelgan bo‘lsa, endilikda bir emas, bir nechta chegara o‘tkazish punktlari erkin ishlab turibdi. Bordi-keldilar yana izga tushdi. Endi bir-birimizni sog‘insak, bahona yoki sabab axtarib o‘tirmaymiz: xohlagan paytda yo‘lga chiqaveramiz.

Qosim akaning bu hikoyasi bugungi dorilamon kunlarning qadrini yanada teran his qilishga undaydi. Yillar davomida to‘plangan sog‘inch va diydor ilinji bugungi kunda ochilgan chegaralar orqali yana o‘z o‘zanini topdi. Darvozalar ochildi, o‘zaro munosabatlardagi muzlar eridi. Chunki qondosh, qarindosh va qardosh xalqlarni hech qanday sun’iy to‘siqlar bilan uzoq vaqt bir-biridan ayirib turishning imkoni yo‘q. Bugungi chegaralar shu tariqa mehr va qadrdonlik darvozalariga aylandi.

Diydorga chegara qo‘yib bo‘lmaydi

Har ikki davlat rahbarlarining siyosiy irodasi va qat’iy qarorlari amaliy natijalarga aylanib, yillar davomida yopiq turgan chegara o‘tkazish punktlar qayta ochildi. Bu jarayon xalqlarimiz hayotida o‘chmas iz qoldirgan muhim tarixiy voqelik sifatida muhrlandi. Munosabatlar iliqlashuvining ilk amaliy ifodasi sifatida 2017-yil 6-sentyabr kuni Andijon viloyatining Xo‘jaobod tumanidagi “Do‘stlik” chegara-bojxona posti tantanali ravishda qayta ochildi.

Oradan ko‘p o‘tmay, 6-oktyabr kuni Andijon va O‘sh viloyatlarini tutashtiruvchi “Madaniyat” va “Kosonsoy” kabi bir qator o‘tkazish punktlari ham o‘z faoliyatini qayta tikladi. Vaqt o‘tishi bilan qatnovni yanada yengillashtirish maqsadida 2023-yil 1-sentyabr kunidan



e’tiboran ikki mamlakat fuqarolari uchun chegaradan xalqaro pasportsiz, shunchaki ID-karta orqali o‘tish tartibi joriy etildi. Bu yengillik xalqlarimizning bordi-keldisini misli ko‘rilmagan darajada osonlashtirdi.

– 2017-yilning sentyabr oyi hech qachon yodimdan chiqmaydi, – deydi O‘sh viloyatining Qorasuv tumanida istiqomat qiluvchi mehnat faxriysi, 68 yoshli Oybek Joldoshev. – “Do‘stlik” posti ochilishi haqida eshitganimizda quvonchdan ko‘zlarimizga yosh keldi. Chunki Andijonning Buloqboshi tumanida jigarlarim, xolam va yana qanchadan-qancha qarindoshlar bor. O‘sha kuni yuzlab odamlar chegaraga oqib kelgandi. Chegaralarning ochilishi aslida ikki davlat o‘rtasidagi zang bosgan temir darvozalarni emas, yuraklardagi sog‘inch yo‘laklarini ochgan quvonchli kun edi. Oradagi to‘siqlar olib tashlangach, odamlarning quvonchini ta’riflashga til ojiz.

Bugungi kunda qo‘shni davlatga o‘tish va qaytishda hech qanday to‘siq yo‘q. Ikki xalq o‘rtasidagi azaliy qadriyatlarni, mehr-oqibatni qayta tiklagan O‘zbekiston va Qirg‘iz Respublikasi rahbarlaridan juda minnatdormiz.

Iqtisodiyot ko‘prigi

O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasida ochilgan o‘tkazish punktlari shunchaki odamlar harakatlanadigan chegara yo‘li bo‘lib qolmay, balki ikki mamlakat savdo-iqtisodiy aloqalari va turizm salohiyatini jadal rivojlantiruvchi muhim strategik ko‘prikka aylandi. Iqtisodiyotning globallashuvi hamda tashqi savdo hajmining keskin ortishi fonida bojxona organlari tomonidan tadbirkorlar va yo‘lovchilar uchun yaratilayotgan qulayliklar mazkur jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Chegaralarda tirbandliklarning oldini olish, rasmiylashtiruv vaqtini minimal darajaga tushirish hamda nazorat jarayonlarini shaffof va tezkor amalga oshirish maqsadida zamonaviy axborot texnologiyalari va xavfni boshqarish tizimi keng joriy etildi. Natijada chegara bojxona postlarida bojxona nazoratidan o‘tish vaqti keskin qisqardi. Bugungi kunda post hududiga kirib kelgan 1 dona yuk avtotransport vositasini bojxona nazoratidan o‘tkazish uchun o‘rtacha 20 daqiqa vaqt sarflanayotgan bo‘lsa, yengil avtotransport vositalari uchun bu ko‘rsatkich atigi 3 – 5 daqiqani tashkil etmoqda.

Soddalashtirilgan ushbu tizim va yaratilgan zamonaviy sharoitlar sababli chegaralar orqali harakatlanish hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Birgina Andijon viloyati bojxona boshqarmasi tasarrufidagi postlar orqali joriy yilning o‘zida 5,5 milliondan ziyod fuqarolar harakatlandi. O‘rta hisobda bir kunda 31 752 nafar fuqaro hamda 1 763 ta avtotransport vositasi, shuningdek, temir yo‘l orqali 213 ta vagon nazoratdan o‘tkazilmoqda. “Do‘stlik” chegara bojxona postining o‘zida joriy yilda 190 522 ta avtotransport vositasi harakatlangani o‘tgan yilning mos davridagiga nisbatan 23,1 foizlik o‘sishni ko‘rsatadi.

– Chegara bojxona postlarida fuqarolar va transport vositalarining harakatini tezkor hamda sifatli nazoratdan o‘tkazish uchun eng so‘nggi rusumdagi zamonaviy texnik vositalar o‘rnatilgan, – deydi Andijon viloyati bojxona boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i Odiljon Aliyev. – Postlarda fuqarolarning bojxona nazoratidan o‘tishida “yashil” va “qizil” yo‘lak tartiblari amal qilmoqda. Agar fuqaroning yonida majburiy deklaratsiyalanishi lozim bo‘lgan ashyolari bo‘lmasa, u hech qanday to‘siqsiz “yashil” yo‘lak orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri harakatlanadi. Qo‘shimcha nazorat talab etilgan hollarda esa jarayon xavfni boshqarish tizimi asosida amalga oshiriladi. Bunda xodimning subyektiv omili cheklanib, planshetlar, rentgen apparatlari, radiatsion portal-monitorlar hamda videokuzatuv tizimlari kabi intellektual texnik vositalardan samarali foydalaniladi. Bu tizim, bir tomondan, harakatlanayotgan fuqarolar va tadbirkorlarga katta qulaylik yaratsa, ikkinchi tomondan, mamlakatimizning iqtisodiy xavfsizligi va jamoat tartibini mustahkam ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Yaratilgan bunday sharoitlar o‘zbek va qirg‘iz xalqlarining o‘zaro bordi-keldisini yanada kuchaytirib, ikki qardosh elning hamjihatligini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Yagona va muqaddas Vatan

O‘zbekiston zaminida azal-azaldan turli millat va elat vakillari ahil hamda inoq yashab keladi. Mamlakatimizda kechayotgan keng ko‘lamli islohotlar va ijtimoiy-iqtisodiy yangilanishlar jarayonida har bir millat vakilining huquq va erkinliklari, ona tili va milliy madaniyatini saqlab qolishi, rivojlantirishi uchun teng imkoniyatlar yaratilgan. Ana shu mustahkam do‘stlik oilasida qirg‘iz millatiga mansub yurtdoshlarimiz ham alohida o‘rin tutadi.

O‘zbekistonda qirg‘iz millatiga mansub 300 mingga yaqin aholi istiqomat qiladi. Ular, asosan, Andijon, Farg‘ona, Namangan, Jizzax, Sirdaryo va Toshkent viloyatlarida tinch hamda farovon umr kechirmoqda. Qirg‘iz yurtdoshlarimiz Vatanimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida, qishloq xo‘jaligi, sanoat, ta’lim, tibbiyot hamda madaniyat sohalarida fidokorona mehnat qilib, yagona maqsad – yurt tinchligi va Vatan taraqqiyoti yo‘lida yelkadosh.

Xususan, Andijon viloyatining Qo‘rg‘ontepa, Jalaquduq, Marhamat, Paxtaobod va Xo‘jaobod tumanlarida qirg‘iz millati vakillari asrlar davomida o‘zbeklar bilan bir oiladek yashab kelishadi. Bugun 100 mingdan ortiq qirg‘iz yurtdoshlarimiz uchun ta’lim qirg‘iz tilida olib boriladigan 30 ga yaqin maktablar faoliyat yurityapti. Shu bilan birga, Andijon davlat pedagogika institutida qirg‘iz tili va adabiyoti fakulteti mavjud bo‘lib, u yerda malakali pedagog kadrlar va mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Viloyatda Qirg‘iz milliy madaniy markazi faol ish olib borayotir. Mazkur markaz tomonidan milliy bayramlar, adabiy-badiiy kechalar va urf-odatlarni targ‘ib etuvchi tadbirlar muntazam o‘tkazilib, qirg‘iz xalqining boy madaniy merosi saqlab qolinmoqda va yosh avlodga yetkazilmoqda.

– O‘zbekiston mana shu zaminda yashayotgan barcha el, xalqlarning yagona va muqaddas Vatani, – deydi markaz rahbari Obidjon Nosirov. – Bu yurtda qirg‘iz millati vakillari o‘z ona tilida so‘zlashishi, farzandlarini ona tilida o‘qitish va milliy an’analarini asrab-avaylashi uchun barcha shart-sharoit mavjud. Biz, o‘zbek va qirg‘iz xalqlari tomiri bir, orzu-intilishlari mushtarak bo‘lgan jigarlarmiz. Maqsadimiz yagona shu aziz Vatanni yanada obod va farovon qilishdir!

...O‘zbekiston hamda Qirg‘iziston rahbarlarining siyosiy irodasi davlatlararo iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy va siyosiy sohalardagi hamkorlikni yanada mustahkamladi, xalqlarimiz o‘rtasidagi asrlar sinovidan o‘tgan azaliy qardoshlik rishtalariga qayta jon bag‘ishladi. Zotan, qayta ochilgan chegara maskanlari ikki elning bir maqsad sari tashlayotgan dadil qadamlarini, azaliy do‘stligi va hamjihatligini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Saminjon HUSANOV
(“Xalq so‘zi”).



Sport

O‘ZBEKISTON 2027-YILGI JAHON KUBOKLARI UCHUN IKKITA YO‘LLANMAGA EGA BO‘LDI

Xalqaro shaxmat federatsiyasi (FIDE) Samarqandda o‘tkazilgan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi natijalariga ko‘ra, 2027-yilgi jahon kubogi va ayollar o‘rtasidagi jahon kubogi uchun yo‘llanmalarni taqsimladi.



Unga ko‘ra, O‘zbekiston har ikki yo‘nalishda ham bittadan yo‘llanmani qo‘lga kiritdi. Erkaklar terma jamoasi Olimpiadani 1-o‘rinda yakunlagani sababli jahon kubogiga, ayollar terma jamoasi esa 13-o‘rinni egallagani sababli ayollar o‘rtasidagi jahon kubogiga yo‘llanma oldi.

FIDE qoidalariga asosan yo‘llanma Olimpiadada terma jamoa tarkibida ishtirok etgan shaxmatchilardan biriga beriladi. Agar barcha jamoa a’zolari boshqa yo‘l orqali allaqachon yo‘llanma olgan yoki ishtirok etishdan voz kechgan bo‘lsa, federatsiya boshqa shaxmatchini tanlashi mumkin. Yakuniy vakillar 2027-yil 1 –15-iyul kunlari tasdiqlanishi kutilmoqda.

Olimpiada natijalari asosida jami 83 ta federatsiya “Open”, 45 ta federatsiya esa ayollar yo‘nalishida 2027-yilgi jahon kuboklariga yo‘llanma oldi.

“Xalq so‘zi”.

REKLAMA

O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim va ilm-fan vazirligi

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

vakant (bo‘sh) professor-o‘qituvchilar lavozimiga tanlov e’lon qiladi

1.	Tabiiy tolalar texnologiyasi va injiniring	professor, dotsent, katta o‘qituvchi.
2.	Avtomatlashtirish va dasturiy injiniring	kafedra mudiri, assistent.
3.	Tikuv buyumlar texnologiyasi va raqamli injiniring	professor, dotsent, katta o‘qituvchi, assistent.
4.	Charm va poyabzal muhandisligi	katta o‘qituvchi.
5.	Moda va dizayn	dotsent, katta o‘qituvchi, assistent.
6.	Aniq va tabiiy fanlar	dotsent, katta o‘qituvchi.
7.	Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat	professor.
8.	To‘qimachilik matolari texnologiyasi	professor, dotsent.
9.	Ipak, yigirish texnologiyalari va materialshunoslik	professor, dotsent.
10.	Kimyo va matbaa muhandisligi	professor, dotsent, katta o‘qituvchi.
11.	Iqtisodiyot va menejment	katta o‘qituvchi, assistent.
12.	Buxgalteriya hisobi va marketing	katta o‘qituvchi, assistent.
13.	O‘zbek va xorijiy tillar	katta o‘qituvchi, assistent.
14.	Qo‘shma ta’lim dasturlarini muvofiqlashtirish	katta o‘qituvchi, assistent.

Tanlovda ishtirok etishni xohlovchilar rektor nomiga ariza bilan kadrlarni hisobga olish bo‘yicha shaxsiy varaqa, diplomlar va attestatlar nusxalari, ilmiy ishlar va ixtirolar ro‘yxati, malaka oshirganlik to‘g‘risida hujjatlar nusxalari topshiradi.

Arizalar e‘lon chiqqan kundan boshlab bir oy muddatda qabul qilinadi.

Eslatma: mazkur institutda ishlovchi shaxslar o‘tgan muddat bo‘yicha kafedrada hisobot beradilar, tanlovda ishtirok etuvchilar sinov darslari o‘tkazadi.

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Shohjahon ko‘chasi, 5-uy, 1-bino, 208-xona.
Telefon: 71-253-17-78.

O‘zbekistonda “Google Pay” xizmati ishga tushirildi. Ushbu tizim foydalanuvchilarga o‘z bank kartalarini telefonga bog‘lab, plastik kartasiz to‘lov qilish imkonini beradi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi – 429. Buyurtma G-1042. 17 780 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih Sh. Marshabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni – 05.00 Topshirildi – 05.10 1 2 3 4 5 6